


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2026-YIL
IYUN/6-SON, III-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING INSTITUTSIONAL TO'SIQLARI VA IQTISODIY OQIBATLARI	10
I. R. Berdikulova	
KIMYO SANOATINING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA TARMOQ KORXONALARIDA BOSHQARUV HISOBI	14
Onorboev Sh.M.	
A WEEKLY LOGISTICS-CONTROLLING SYSTEM FOR EXPORT SUPPLY CHAINS: CORRIDOR-LEVEL EVIDENCE FROM A TEXTILE EXPORTER.....	26
Mukhammadiyahaminova Shakhzoda Sherzodovna	
FOTOVOLTAIK-TROMBE DEVORI ASOSIDA HAVONI ISITISH, TOZALASH VA ELEKTR ENERGIYASI ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI INTEGRATSIYALASHNING ILMIY-METODIK TAHLILI.....	36
Rahimova Volida Karim qizi	
XAVFSIZ HAYOT TARZINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM VA TARBIYANING O'RNI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY MODEL.....	42
Nigmatjonov Sardor Abdumannovich	
РАЗВИТИЕ МЕТОДОЛОГИИ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ СТРАТЕГИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ: КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ ПОДХОД.....	49
Дониёрова Зухрабону Алишер кизи	
KAMBAG'AL OILALARNI TADBIRKORLIKKA JALB QILISHDA DAVLAT TOMONIDAN MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH VA BOSHQARISH (MENEJMENT) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI...53	
Bazarbaeva Asiya Shalkarbaevna	
MOLIVAVIY INKLYUZIVLIK KONSEPSIYASI: BANK XIZMATLARINING KAMBAG'ALLIK DARAJASIGA TA'SIRINING NAZARIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	58
Niyozov Zuxur, Abdujalilov Shexroz, Zubaydulloyeva Damira	
KORXONALARNI QAYTA TASHKIL ETISH JARAYONIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	61
Davletov Ikrom Raximberganovich	
ИОРДАНИЯ КАК ТУРИСТИЧЕСКИЙ ЦЕНТР БЛИЖНЕГО ВОСТОКА.....	67
Салихова Алина Муратовна	
QUYOSH ENERGIYASINI KONVERSIYALOVCHI OPTOELEKTRON GELIOTRANSFORMATORLARNING FIZIK-TEXNIK ASOSLARI	73
Axunov Qambarali, Xomidov Abdullajon, Mashrapova Irodaxon	
XXI ASRDA O'ZBEKISTONDA ELEKTR ENERGIYASINI TEJASHDAGI YANGI TEXNOLOGIYALAR.....	78
Xamrakulova Xilola, Yusupova Sevaraxon	
HUDUDIY IXTISOSLASHUVNING SHAKLLANISH OMILLARI VA MINTAQAVIY RIVOJLANISHDAGI AHAMIYATI	83
Sodiqova Nigora	
BANKLAR TRANSFORMATSIYASI JARAYONIDA AKTIVLAR SAMARADORLIGI TAHLILI.....	89
Muminov Bekzod Polvonovich	
ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА	95
Садыков Авазбек Мадаминович, Цхай Лана Александровна	
MILLIY KADRLAR ZAXIRASINI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJ TAJRIBASI.....	103
G'aniyev Elyor Sobirjonovich	
DIGITALIZATION OF INSOLVENCY PROCESSES: THE ROLE OF A UNIFIED ELECTRONIC PLATFORM IN ENSURING TRANSPARENCY AND ECONOMIC EFFICIENCY	110
Damirjon Nurmatovich Soliyev	



О ПРОЦЕССАХ ЦИФРОВИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	116
Джумаев Аскар Хайдарович	
SOLIQ MA'MURCHILIGI METODOLOGIYASINING HUQUQIY, TASHKILY VA RAQAMLI BAZASINI SHAKLLANTIRISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR.....	121
Shamsiev O'ktam Sayfitdinovich	
KO'P XONADONLI UYLARDA KOMMUNAL XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI VA HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	127
Muminov Obidjon Odilovich	
MINTAQA VA UNING HUDUDLARIDA MEHNAT OMILI HISOBIGA SANOAT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'LLARI.....	135
Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich	
КЛАССИФИКАЦИЯ ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ С УЧЕТОМ ОПТИМИЗАЦИИ БИЗНЕС ПРОЦЕССОВ.....	141
Джуманов А.А.	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLARNI FAKTOR TAHLIL VA KO'P OMILLI REGRESSIYA ASOSIDA BAHOLASH.....	152
V.I. Isroilov, V.B. Ibragimov	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В РАЗВИТИИ БАНКОВСКИХ УСЛУГ.....	158
Мамутова Айгуль Калмурзаевна	
QUYOSH NOVUZLARIDA SODIR BO'LUVCHI ISSIQLIK JARAYONLARINING BIR O'LCHAMLI MATEMATIK MODEL.....	165
M.M. Maxmudova, J.J. Kamolov	
ФАКТОРЫ, СДЕРЖИВАЮЩИЕ РАЗВИТИЕ БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	172
Алиев Али Комил угли, Каримова А.	
ISTE'MOL KREDITLARINING ANAMIYATI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	176
S. Qayumov, M. Qurbonov, A. S. Abduraxmanov	
AVTOTRANSPORT XIZMATLARI SAMARADORLIK DARAJASINI OMILLI TAHLILI.....	179
Raximov Azamat Hamroqulovich	
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA FIRMALARNING TASHQI BOZORLARGA INTEGRATSIYALASHUV JARAYONLARI: XORIY TAJRIBASI.....	183
Ozodova Farida Zarif qizi	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ЗОЛОВОАЛЮТНЫМИ РЕЗЕРВАМИ И ВНЕШНИМ ДОЛГОМ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УЧАСТНИКОВ ФИНАНСОВОГО РЫНКА В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ.....	187
Зайналов Жахонгир Расулович, Алиева Сусанна Сейрановна	
GENERATIV AI ASOSIDAGI ALGORITMIK NARX BELGILASH MEKANIZMLARI: RAQOBAT IQTISODIYOTIDA MONOPOLLASHUV XAVFI, VANO BO'YICHA SOZLASHUV MUAMMOLARI VA ANTIMONOPOL TARTIBGA SOLISH.....	192
Kendjayeva Dildora Xudayberganovna, Abdumannopova Shirin Olamgir qizi	
РАЗВИТИЕ ЗЕЛЁНОЙ ЭНЕРГЕТИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА.....	200
Тураева А. И.	
THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN KNOWLEDGE DELIVERY MODELS.....	204
Daminova Barno Esanovna, Pardayeva Sevinch Sherzod qizi, Inoqov Jasur Komil o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА ДЛЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И СТАРТАПОВ.....	208
Ибрагимов Гайратжон Артикович	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA SUN'IY INTELLEKT SHAROITIDA IJTIMOY-IQTISODIY ADOLAT QOIDALARI.....	216
Alimov Nasimjon Hoshimovich	



ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА	221
Садыков Авазбек Мадаминович, Цхай Лана Александровна	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH USULLARI	228
Daminova Barno Esanovna, Abduraimova Aziza Erkin qizi, G'ofurova Anora Zafar qizi	
XALQARO MOLIYAVIY HISOBOT STANDARTLARI (IFRS)GA O'TISH JARAYONIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBINING MUAMMOLARI.....	233
Ismailov Naufal Nadirovich	
RAQAMLI BANK XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA SUN'IY INTELLEKT VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	241
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN HIGHER EDUCATION: A GLOBAL REVIEW OF AI-POWERED TEACHING AND LEARNING	245
Begzod Nishanov	
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY SUG'URTA (TAKAFUL) TIZIMINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI: NAZARIY-QIYOSIY TAHLIL	251
Abdullayev Azamat Akbar o'g'li	



O‘ZBEKISTONDA ISLOMIY SUG‘URTA (TAKAFUL) TIZIMINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI: NAZARIY-QIYOSIY TAHLIL

Abdullayev Azamat Akbar o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
“Iqtisodiyot va menejment” kafedrasida mustaqil izlanuvchisi
aa.abdullayev01@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada an’anaviy sug‘urta va islomiy sug‘urta (takaful) tizimlari nazariy-qiyosiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi hamda O‘zbekistonda takaful tizimini joriy etish imkoniyatlari o‘rganiladi. Tadqiqotning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, har ikkala tizim ham xavflarni boshqarish (risk management) funksiyasini bajaradi, biroq xavfni o‘tkazish (risk transfer) va xavfni bo‘lishish (risk sharing) tamoyillari, shuningdek, shartnoma tuzilmasi nuqtai nazaridan bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. An’anaviy sug‘urtada xavf sug‘urta kompaniyasiga muayyan mukofot evaziga o‘tkaziladi, takaful tizimida esa ishtirokchilar o‘zaro yordam (ta’awun) tamoyili asosida umumiy jamg‘armaga badal (tabarru) kiritib, xavflarni birgalikda bo‘lishadilar. Maqolada riba, g‘arar va maysir kabi shar’iy taqiqlar, mudoraba va vakola operatsion modellari hamda surplus (ortiqcha mablag‘)ni taqsimlash mexanizmi tahlil qilinadi. Shuningdek, jahon takaful bozori 2024-yilda turli baholashlarga ko‘ra 33–52 milliard AQSh dollari hajmiga yetgani, yiliga o‘rtacha 11–15 foiz sur‘atlarda o‘sayotgani va uning qariyb 85 foizi Fors ko‘rfazi mamlakatlari hissasiga to‘g‘ri kelishi, shuningdek, O‘zbekistonda 2026-yil iyun oyida “Islomiy bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning kuchga kirishi bilan bog‘liq amaliy imkoniyatlar muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari takaful tizimining O‘zbekistonda sug‘urta qamrovini (insurance penetration) kengaytirish va moliyaviy inklyuzivlikni mustahkamlash bo‘yicha muhim salohiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: islomiy sug‘urta (Islamic insurance), takaful, o‘zaro yordam (ta’awun), tabarru (xayriya badali), mudoraba, vakola, surplus taqsimoti, g‘arar (noaniqlik), retakaful, moliyaviy inklyuzivlik, sug‘urta qamrovi.

Аннотация. В данной статье проводится теоретико-сравнительный анализ традиционного страхования и исламского страхования (такафул), а также исследуются возможности внедрения системы такафул в Узбекистане. Основная идея исследования заключается в том, что обе системы выполняют функцию управления рисками, однако принципиально различаются с точки зрения передачи риска (risk transfer), разделения риска (risk sharing), а также структуры договорных отношений. В традиционном страховании риск передаётся страховой компании за страховую премию, тогда как в системе такафул участники на основе взаимопомощи (таавун) вносят взносы (табарру) в общий фонд и совместно разделяют риски. В статье анализируются шариатские запреты риба, гарар и майсир, операционные модели мудараба и вакала, а также механизм распределения излишка средств (surplus). Кроме того, рассматриваются практические возможности, связанные с тем, что мировой рынок такафула в 2024 году достиг, по различным оценкам, 33–52 млрд долларов США, демонстрируя ежегодный рост на уровне 11–15 %, при этом около 85 % рынка приходится на страны Персидского залива. Также обсуждаются перспективы развития такафула в Узбекистане в связи со вступлением в силу в июне 2026 года Закона «Об исламской банковской деятельности». Результаты исследования свидетельствуют о значительном потенциале такафула в расширении страхового охвата населения и укреплении финансовой инклюзии в Узбекистане.

Ключевые слова: исламское страхование (Islamic insurance), такафул, взаимопомощь (таавун), табарру, мудараба, вакала, распределение излишка средств, гарар (неопределённость), ретакафул, финансовая инклюзивность, страховой охват.

Abstract. This article provides a theoretical and comparative analysis of conventional insurance and Islamic insurance (Takaful) and examines the prospects for implementing the Takaful system in Uzbekistan. The main premise of the study is that both systems perform a risk-management function; however, they differ fundamentally in terms of risk transfer and risk sharing principles, as well as their contractual structures. In conventional insurance, risk is transferred to the insurer in exchange for a premium, whereas in Takaful, participants contribute donations (tabarru) to a common fund based on the principle of mutual assistance (ta’awun) and collectively share risks. The article analyses the Shariah prohibitions of riba, gharar, and maysir, the operational models of mudarabah and wakalah, and the mechanism for surplus distribution. Furthermore, it discusses practical opportunities arising from the global Takaful market, which was estimated at USD 33–52 billion in 2024, growing at an annual rate of 11–15%, with approximately 85% concentrated in the Gulf countries. The study also considers the prospects for Takaful development in Uzbekistan following the enactment of the Law “On Islamic Banking Activity” in June 2026. The findings indicate that the Takaful system has considerable potential to increase insurance penetration and strengthen financial inclusion in Uzbekistan.

Keywords: Islamic insurance, Takaful, mutual assistance (ta’awun), tabarru (donation contribution), mudarabah, wakalah, surplus distribution, gharar (uncertainty), retakaful, financial inclusion, insurance penetration.

KIRISH

Sug'urta tizimining iqtisodiy mohiyatini tushunish uchun uning asosida yotgan xavflarni boshqarish mexanizmlarini chuqur tahlil qilish zarur. Zamonaviy moliyaviy nazariyada sug'urta jamiyatda xavflarni qayta taqsimlovchi muhim institut sifatida qaraladi. U kutilmagan zararlarni ko'p sonli ishtirokchilar o'rtasida taqsimlash orqali har bir alohida shaxs uchun moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi. Biroq xavfni qayta taqsimlashning aniq mexanizmi, ya'ni uni pul evaziga uchinchi tomonga o'tkazish yoki ishtirokchilar o'rtasida o'zaro bo'lishish butun tizimning iqtisodiy va axloqiy tabiatini belgilaydi.

Shu nuqtai nazardan, islomiy sug'urta, ya'ni takaful xalqaro miqyosda muqobil moliyaviy paradigma sifatida jadal rivojlanmoqda. Takaful o'zaro yordam (ta'awun) va birdamlik tamoyillariga asoslanadi. Unda ishtirokchilar umumiy jamg'armaga xayriya tabiatidagi badal (tabarru) kiritadi hamda ushbu jamg'arma hisobidan zarar ko'rgan a'zolarga qoplama beriladi. Bunday model an'anaviy sug'urtaga xos bo'lgan riba (sudxo'rlik), g'arar (haddan ortiq noaniqlik) va maysir (qimor) unsurlarini bartaraf etishga qaratilgan.

The Business Research Company hisob-kitoblariga ko'ra, jahon takaful bozori 2024-yilda 32,85 milliard AQSh dollarini tashkil etgan. Uning hajmi 2025-yilda 36,5 milliard dollarga, 2029-yilga borib esa 57 milliard dollardan oshishi kutilmoqda (The Business Research Company, 2025). IMARC Group baholashicha, bozorning qariyb 85 foizi Fors ko'rfazi hamkorlik kengashi (GCC) mamlakatlariga to'g'ri keladi va Saudiya Arabistoni mintaqaviy yetakchi hisoblanadi (IMARC Group, 2025). Hozirgi kunda dunyo bo'ylab 350 dan ortiq takaful operatori faoliyat yuritmoqda, ulardan 150 dan ortig'i Yaqin Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyoda joylashgan (Market Growth Reports, 2024).

Shu bilan birga, takaful islomiy moliya sanoatining eng kichik segmenti bo'lib qolmoqda. Islomiy moliyaviy xizmatlar kengashi (IFSB) ma'lumotlariga ko'ra, takaful aktivlari jahon islomiy moliya aktivlarining atigi 1,4 foizini tashkil etadi. Biroq ushbu sektor yiliga 16,9 foiz sur'atda o'smoqda (IFSB, 2025). 2024-yil oxirida jahon islomiy moliya aktivlari 5,98 trillion dollarga yetganini hisobga olsak (ICD–LSEG, 2025), takaful bozorida hali ham ulkan o'sish salohiyati mavjud.

O'zbekiston Respublikasi uchun ushbu masalaning dolzarbligi alohida ahamiyatga ega. Milliy istiqbolli loyihalar agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda mamlakatda sug'urta mukofotlari hajmi 13,46 trillion so'mni tashkil etib, bir yil davomida 37,8 foizga oshgan (UzDaily, 2026). Shunga qaramay, sug'urta qamrovi (penetratsiyasi) yalpi ichki mahsulotga nisbatan 1 foizdan past bo'lib qolmoqda. Bu esa OECD mamlakatlaridagi o'rtacha 6,2 foizlik ko'rsatkichdan sezilarli darajada pastdir (OECD, 2025). Aholisining qariyb 96 foizi musulmon bo'lgan mamlakatda diniy e'tiqod sababli an'anaviy sug'urtadan foydalanishdan tiyilish sug'urtalanmagan xavflar darajasining yuqori bo'lib qolishiga ta'sir qilishi mumkin.

Shar'iy talablarga mos moliyaviy mahsulotlarga jamiyatda sezilarli talab mavjud. 2020-yilda o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, tadbirkorlarning 38 foizi va aholining 56 foizi an'anaviy bank kreditlaridan voz kechgan. Agar islomiy moliya institutlari tashkil etilsa, tadbirkorlarning 61 foizi va aholining 75 foizi ulardan foydalanishga tayyorligini bildirgan (Kun.uz, 2025). Mintaqaviy tajriba ham ushbu yo'nalishning istiqbolli ekanligini ko'rsatadi. Jumladan, 2025-yilda Qirg'iziston takafulni yangi sug'urta qonunchiligiga integratsiya qilgan va birinchi ixtisoslashgan operatorga litsenziya bergan Markaziy Osiyo davlatiga aylandi (Eurasian Development Bank, 2025).

Tadqiqotning maqsadi an'anaviy sug'urta va islomiy sug'urta (takaful) tizimlarini nazariy-qiyosiy jihatdan tahlil qilish hamda O'zbekistonda takaful tizimini joriy etishning iqtisodiy va institutsional imkoniyatlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotda beshta asosiy vazifa belgilangan: sug'urtaning iqtisodiy mohiyati hamda xavfni o'tkazish va bo'lishish konsepsiyalarini ochib berish; takafulning shar'iy-iqtisodiy tamoyillarini, ya'ni ta'awun, tabarru, riba, g'arar va maysirdan xolislik tamoyillarini tahlil qilish; an'anaviy sug'urta va takaful mexanizmlarini daromad manbai, xavf taqsimoti va shartnoma tuzilmasi bo'yicha qiyoslash; takafulning operatsion modellari — mudoraba va vakola hamda surplus taqsimotini yoritish; O'zbekiston sharoitida takaful tizimini joriy etish imkoniyatlarini baholash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, ikkala sug'urta paradigmasi bir xil iqtisodiy funksiyani, ya'ni xavfni qayta taqsimlashni bajarsa-da, ularning shartnoma tuzilmasi va axloqiy-iqtisodiy mohiyati tubdan farqlanishi qiyosiy tahlil orqali asoslanadi. Ushbu farq O'zbekistonda takaful tizimini joriy etishning amaliy imkoniyatlari nuqtai nazaridan talqin qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Klassik sug'urta nazariyasining markaziy konsepsiyalaridan biri xavflarni birlashtirish (risk pooling) g'oyasi hisoblanadi. Unga ko'ra, ko'p sonli mustaqil xavflarni bitta jamg'armada birlashtirish katta sonlar qonuni asosida umumiy zararni oldindan bashorat qilinadigan kattalikka aylantiradi. An'anaviy sug'urtada ushbu jamg'arma



sug'urta kompaniyasi tomonidan boshqariladi va sug'urta badali (premiya) evaziga xavf to'liq sug'urtalovchiga o'tkaziladi (risk transfer).

Xavfni qayta taqsimlashning muqobil talqini ham mavjud. Islom iqtisodiyoti nazariyotchilari M. U. Chapra (2008) hamda Z. Iqbol va A. Mirakhor (2011) ta'kidlashicha, sug'urtaning axloqiy maqsadi xavfni birovga sotish emas, balki jamoaviy birdamlik asosida o'zaro himoyani ta'minlashdir. Ushbu yondashuvda jamg'arma ishtirokchilarning umumiy mulki hisoblanadi, operator esa uni faqat boshqaradi. An'anaviy yondashuvda sug'urtalovchi badal bilan zarar o'rtasidagi ayirmadan foyda oladi va xavfning egasiga aylanadi. O'zaro yordam yondashuvida esa xavf ishtirokchilar jamoasida qoladi, operator faqat xizmat haqi yoki investitsiya foydasidan ulush oladi. Aynan shu farq takaful modelining iqtisodiy o'zagini tashkil etadi.

Islomiy moliyaning uchta asosiy taqiqi, ya'ni riba (sudxo'rlik), g'arar (haddan ortiq noaniqlik) va maysir (qimor) an'anaviy sug'urtaning shar'iy nuqtai nazardan muammoli deb baholanishiga sabab bo'ladi. An'anaviy sug'urta shartnomasida sug'urtalanuvchi nisbatan kichik badal to'lab, noaniq sharoitda katta qoplama olishi yoki umuman olmasligi mumkin. Bu ayirboshlash g'arar va maysir unsurlarini o'z ichiga oladi, deb hisoblanadi. Bundan tashqari, an'anaviy sug'urta kompaniyalari to'plangan badallarni asosan foizli (ribaviy) moliyaviy instrumentlarga joylashtiradi, bu esa riba taqiqiga zid hisoblanadi. M. El-Gamal (2006) ta'kidlaganidek, takaful aynan shu uch unurni bartaraf etishga qaratilgan tuzilma sifatida ishlab chiqilgan. Tabarru (xayriya) tamoyili ayirboshlash shartnomasini o'zaro yordam shartnomasiga aylantirib, g'arar va maysir muammosini yumshatadi, jamg'arma esa shariatga mos (halol) aktivlarga investitsiya qilinadi.

Takafulning markaziy iqtisodiy tamoyili o'zaro yordam (ta'awun) va birdamlikdir. Ishtirokchilar umumiy jamg'armaga tabarru, ya'ni xayriya tabiatidagi badal kiritadi va shu orqali zarar ko'rgan a'zoga yordam berish majburiyatini birgalikda o'z zimmasiga oladi. Iqtisodiy nuqtai nazardan, ushbu model an'anaviy sug'urtadan ikki muhim jihat bilan farqlanadi. Avvalo, badal ayirboshlash narxi emas, balki shartli xayriya sifatida qaraladi. Bundan tashqari, jamg'armadagi ortiqcha mablag' (surplus) ishtirokchilarga qaytarilishi mumkin. Empirik kuzatuvlar takaful mexanizmining iqtisodiy hayotiyiligini tasdiqlaydi. Saudiya Arabistoni va Malayziya tajribasi shuni ko'rsatadiki, takaful operatorlari moliyaviy barqarorlik va raqobatbardoshlikni saqlagan holda faoliyat yurita oladi. Ushbu ikki mamlakatda islomiy sug'urta umumiy sug'urta segmentining 40 foizdan ortig'ini egallaydi (Market Growth Reports, 2024). Malayziyada takaful qamrovi taxminan 16 foizni tashkil etadi (Verified Market Reports, 2025).

Takafulning yana bir muhim tamoyili jamg'arma mablag'larining faqat shariatga mos (halol) aktivlarga investitsiya qilinishidir. Bu spekulativ va ribaviy instrumentlardan, jumladan, foizli obligatsiyalar hamda ayrim hosilaviy moliyaviy vositalardan voz kechishni talab etadi. Investitsiya daromadi real iqtisodiy faoliyatga bog'lanadi, bu esa moliyaviy sektor bilan real sektor o'rtasidagi aloqani mustahkamlaydi. Aktivga asoslanganlik tamoyili takaful jamg'armasini real iqtisodiyotga yo'naltirilgan investitsiyalar orqali ko'paytirishni nazarda tutadi. Bu esa uzoq muddatda barqaror va inklyuziv o'sishga xizmat qiladi.

Takaful nazariyasi va amaliyoti bo'yicha jahon miqyosida boy ilmiy adabiyotlar bazasi shakllangan. Takaful tahliliga bag'ishlangan dastlabki ilmiy ishlardan biri Maysami va Kwon (1999) tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, unda islomiy sug'urtaning operatsion tuzilmasi tahlil qilingan. Konseptual va tartibga solish masalalari Archer, Karim va Nienhaus (2009) hamda Billah (2019) ishlarida, shar'iy-iqtisodiy tamoyillar esa Chapra (2008), Iqbol va Mirakhor (2011) hamda El-Gamal (2006) tomonidan yoritilgan. Hassan va Aliyu (2018) islomiy moliya bo'yicha zamonaviy adabiyotlar sharhida takaful sohasining tez o'sayotganini, ammo standartlashtirish va shar'iy boshqaruvda ayrim farqlar saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Akhter va Khan (2017) hamda Khan (2015) takaful operatorlari uchun rag'batlantirish tizimlari va talab omillarini empirik jihatdan o'rganib, vakola va mudoraba modellarining samaradorligi bozor sharoitiga bog'liqligini aniqlagan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Empirik yo'nalishda Beck, Demirgüç-Kunt va Merrouche (2013) islomiy hamda an'anaviy bank-moliya institutlarini biznes modeli, samaradorlik va barqarorlik nuqtai nazaridan qiyoslab, islomiy institutlar 2007–2008-yillardagi global moliyaviy inqiroz davrida nisbatan barqaror bo'lganini aniqlagan. Sug'urta va iqtisodiy taraqqiyot o'rtasidagi bog'liqlik Outreville (2013) tomonidan 85 ta empirik ishni umumlashtirish asosida yoritilgan. Swiss Re Institute (2024) esa global sug'urta bozorining barqarorligi va qamrov dinamikasini tahlil qiladi. Moliyaviy inklyuzivlik yo'nalishida Demirgüç-Kunt va hammualliflarning Jahon banki Global Findex ma'lumotlariga asoslangan tadqiqotlari shar'iy talablar ayrim holatlarda moliyaviy xizmatlardan foydalanishga ta'sir ko'rsatishi mumkinligini, takaful kabi mahsulotlar esa bu ehtiyojni qondirish imkonini berishini ko'rsatadi. Bozor tahlillariga ko'ra, Yaqin Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyodagi musulmonlarning 70 foizdan ortig'i an'anaviy sug'urtadan ko'ra shariatga mos moliyaviy mahsulotlarni afzal ko'radi (Market Growth Reports, 2024).

Jahon takaful bozorining asosiy ko'rsatkichlari 1-jadvalda jamlangan.

1-jadval
 Jahon takaful bozorining asosiy ko'rsatkichlari (2024–2025)

Ko'rsatkich	Qiymat	Manba
Bozor hajmi (2024)	33–52 mlrd AQSh dollari	TBRC (2025), Maximize (2025)
Yillik o'sish sur'ati (CAGR)	11–15 foiz	TBRC (2025), IMARC (2025)
Fors ko'rfazi (GCC) ulushi	qariyb 85 foiz	IMARC (2025)
Takaful operatorlari soni	350 dan ortiq	Market Growth Reports (2024)
Faol takaful bozorlari	30 dan ortiq mamlakat	Market Growth Reports (2024)
Takafulning islomiy moliyadagi ulushi	1,4 foiz	IFSB (2025)
Eng yirik segment	oilaviy takaful (Family Takaful)	Market Research Future (2026)

Manba: muallif tomonidan ko'rsatilgan manbalar asosida tuzilgan.

Sug'urta operatsiyasini tavsiflashda foydalaniladigan soddalashtirilgan asosiy munosabat quyidagicha ifodalanadi:

$$S = \sum Ti - (C + E) + I$$

bu yerda: **S** — jamg'arma natijasini, ya'ni surplus yoki defitsitni; $\sum Ti$ — ishtirokchilar tomonidan to'plangan badallar yig'indisini; **C** — to'langan qoplamalarni; **E** — operatsion xarajatlarni; **I** esa jamg'arma investitsiyasidan olingan daromadni bildiradi.

Ushbu munosabatning iqtisodiy talqini ikki tizimda tubdan farqlanadi. An'anaviy sug'urtada **S** sug'urta kompaniyasining foydasi yoki zarari hisoblanadi va aksiyadorlarga tegishli bo'ladi. Takafulda esa **S** ishtirokchilar jamg'armasiga tegishli bo'lib, operator faqat oldindan kelishilgan haq yoki investitsiya foydasidan ulush oladi, ortiqcha mablag' esa ishtirokchilarga qaytarilishi mumkin. Bu farq texnik emas, balki iqtisodiy mohiyat darajasidagi farqdir. An'anaviy modelda sug'urtalovchi badal va zarar o'rtasidagi ayirmadan manfaatdor bo'lsa, takaful modelida operatorning manfaati jamg'armani samarali boshqarish va halol investitsiya daromadiga bog'lanadi. Bu esa manfaatlar muvozanatini o'zgartiradi.

Takaful amaliyotda asosan ikki operatsion model orqali tashkil etiladi. Mudoraba modelida operator (mudorib) jamg'armani boshqaradi va investitsiya foydasidan oldindan kelishilgan nisbatda ulush oladi. Zarar yuz berganda esa operator boshqaruv haqidan mahrum bo'ladi, moliyaviy zararni esa jamg'arma ko'taradi. Vakola modelida operator agent (vakil) sifatida ish ko'radi va badallarning belgilangan foizini xizmat haqi sifatida oladi, jamg'arma natijasi esa to'liq ishtirokchilarga tegishli bo'ladi. Iqtisodiy nuqtai nazardan, vakola modeli operator daromadini jamg'arma natijasidan ajratib, manfaatlar to'qnashuvini kamaytiradi. Mudoraba modeli esa operatorni jamg'armani foydali boshqarishga rag'batlantiradi. Amaliyotda ko'plab operatorlar gibridd modelni qo'llaydi, ya'ni badallarni boshqarishda vakola, investitsiya faoliyatida esa mudoraba tamoyilidan foydalanadi.

Takaful jamg'armasi dinamikasini aniq raqamlarda ko'rsatish uchun soddalashtirilgan misolni ko'rib chiqamiz. Aytaylik, 10 000 nafar ishtirokchi yiliga o'rtacha 100 AQSh dollari miqdorida tabarru badali kiritadi. Bunda jami yillik badal 1 000 000 dollarni tashkil etadi. Yillik o'rtacha zarar koeffitsiyenti, ya'ni qoplamalar nisbati 60 foiz, operatsion xarajatlari yoki vakola haqi 20 foiz, halol investitsiyalardan olinadigan o'rtacha daromad esa 8 foiz deb olinadi. Quyidagi 2-jadval besh yillik soddalashtirilgan dinamikani ko'rsatadi.

2-jadval

Takaful jamg'armasi dinamikasi: nazariy simulyatsiya
 (ishtirokchilar 10 000 nafar, yillik badal 1 000 000 USD, zarar koeffitsiyenti 60%, vakola haqi 20%, investitsiya daromadi 8%)

Yil	Yillik badal (USD)	Qoplamalar (USD)	Investitsiya daromadi (USD)	Yil oxiri jamg'arma surplusi (USD)
1	1 000 000	600 000	16 000	216 000
2	1 000 000	600 000	33 280	449 280
3	1 000 000	600 000	51 942	701 222
4	1 000 000	600 000	72 098	973 320
5	1 000 000	600 000	93 866	1 267 186

Manba: muallif tomonidan $S = \sum T_i - (C + E) + I$ munosabati asosida tuzilgan (kumulyativ surplus reinvestitsiya



qilingan holda).

Jadval natijalari takaful modelining ikki muhim xususiyatini ochib beradi. Birinchi xususiyat shundan iboratki, vakola haqi badaldan oldindan ajratilgani sababli operator daromadi jamg'arma natijasidan mustaqil bo'ladi va manfaatlar to'qnashuvi kamayadi. Ikkinchi xususiyat esa qoplamalardan ortgan mablag', ya'ni surplus jamg'armada to'planib, halol investitsiyalar hisobiga o'sib borishi hamda uni ishtirokchilarga qaytarish yoki keyingi yillarga zaxira sifatida saqlash imkoniyatining mavjudligidir.

Ushbu maqolaning markaziy nazariy tezisi quyidagicha shakllantirilishi mumkin: an'anaviy sug'urta va takaful bir xil iqtisodiy funksiyani, ya'ni jamiyatda xavfni qayta taqsimlash vazifasini bajaradi, biroq institutsional va shartnoma tuzilmasi darajasida tubdan farqlanadi. Funksional o'xshashlik takafulning an'anaviy sug'urta bilan raqobatbardosh bo'lishini ta'minlaydi. Institutsional farqlanish esa uning axloqiy-iqtisodiy o'ziga xosligini va shar'iy talablarga mos auditoriyani jalb qilish salohiyatini belgilaydi.

Ushbu tezisning amaliy ahamiyati shundan iboratki, takaful an'anaviy sug'urtaga matematik-funksional jihatdan raqobat qila olgani holda, diniy e'tiqodi tufayli an'anaviy sug'urtadan foydalanishdan tiyilgan aholi qatlamini moliyaviy himoyaga jalb qilish orqali umumiy sug'urta qamrovini kengaytiradi.

An'anaviy sug'urtada xavf badal evaziga sug'urtalovchiga o'tkaziladi (risk transfer). Sug'urtalanuvchi to'lovni amalga oshirgach, xavf to'liq kompaniya zimmasiga o'tadi va kompaniya uni o'z hisobida boshqaradi. Takafulda esa xavf ishtirokchilar jamoasida bo'lishiladi (risk sharing), chunki har bir a'zo ham himoyalalanuvchi, ham boshqalarni himoya qiluvchi sifatida ishtirok etadi. Bu farq daromad manbaiga ham ta'sir qiladi. An'anaviy modelda kompaniya foydasi badal va zarar o'rtasidagi ayirma hamda ko'pincha foizli investitsiya daromadlari hisobidan shakllanadi. Takaful modelida esa operator daromadi faqat vakola haqi va halol investitsiyadan olinadigan mudoraba ulushidan iborat bo'ladi.

An'anaviy sug'urtada jamg'arma natijasi, ya'ni surplus kompaniya foydasi sifatida aksiyadorlarga tegishli bo'ladi va sug'urtalanuvchi unga da'vo qila olmaydi. Bu sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi manfaatlari o'rtasida potensial qarama-qarshilikni yuzaga keltiradi, chunki kompaniya qoplamalarni kamaytirishdan manfaatdor bo'lishi mumkin. Takafulda esa surplus ishtirokchilar jamg'armasiga tegishli bo'lib, belgilangan tartibda ularga qaytarilishi yoki zaxiraga yo'naltirilishi mumkin. Ushbu mexanizm operator va ishtirokchilar manfaatlarini muvofiqlashtiradi hamda ortiqcha qoplamadan tiyilish rag'batini kamaytiradi.

An'anaviy sug'urta kompaniyalari to'plangan zaxiralarni keng moliyaviy bozorlarga, jumladan, foizli instrumentlarga joylashtiradi. Bu esa moliyaviy sektorning real sektordan uzoqlashuviga, ya'ni moliyaviylashuv jarayoniga hissa qo'shishi mumkin. Takafulda esa halol investitsiya talabiga ko'ra jamg'arma asosan real aktivlar va shariatga mos loyihalarga yo'naltiriladi. Shu tariqa, takaful jamg'armasi real iqtisodiy faoliyat bilan bevosita bog'lanadi, kapitalning real sektorga oqib o'tishini rag'batlantiradi va moliyaviy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Saudiya Arabistoni va Malayziyada islomiy sug'urtaning umumiy sug'urta segmentidagi 40 foizdan ortiq ulushi ushbu modelning amaliy raqobatbardoshligini tasdiqlaydi (Market Growth Reports, 2024).

Yuqorida muhokama qilingan farqlarni 3-jadvalda jamlangan holda taqdim etamiz.

3-jadval

An'anaviy sug'urta va takafulning qiyosiy xususiyatlari

Mezon	An'anaviy sug'urta	Takaful (islomiy sug'urta)
Xavf munosabati	xavfni o'tkazish (risk transfer) sug'urtalovchiga	xavfni bo'lishish (risk sharing) ishtirokchilar o'rtasida
Shartnoma tabiati	ayirboshlash (badal evaziga qoplama)	o'zaro yordam (ta'awun) va xayriya (tabarru)
Jamg'arma egaligi	sug'urta kompaniyasi (aksiyadorlar)	ishtirokchilar jamoasi
Surplus (ortiqcha)	kompaniya foydasi sifatida aksiyadorlarga	ishtirokchilarga qaytariladi yoki zaxiraga
Investitsiya	cheklanmagan, ko'pincha foizli (ribaviy)	faqat shariatga mos (halol) aktivlarga
Shar'iy taqiqlar	riba, g'arar, maysir mavjud deb baholanadi	riba, g'arar, maysirdan xoli qilishga qaratilgan
Boshqaruv	standart korporativ boshqaruv	shar'iy nazorat kengashi (Shariah board) bilan

Manba: muallif tomonidan Chapra (2008), Iqbol va Mirakhor (2011), El-Gamal (2006) hamda Hassan va Aliyu (2018) tadqiqotlari asosida tuzilgan.

Yuqoridagi farqlanishlarning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini muhim ahamiyatga ega. Takafulning o'zaro yordam va surplus taqsimoti tamoyillari sug'urtani axloqiy va inklyuziv institutga aylantiradi. Chunki u nafaqat xavfni qoplaydi, balki jamoaviy birdamlikni ham mustahkamlaydi. Shar'iy talablarga mos mahsulot diniy sabablarga ko'ra moliyaviy xizmatlardan chetda qolgan aholini jalb qilish orqali moliyaviy inklyuzivlikni oshiradi. Shu bilan birga, takaful tizimi o'ziga xos tartibga solish va shar'iy nazoratni talab qiladi. Standartlashtirishning yetarli

emasligi va shar'iy talqinlardagi farqlar amaliyotda muayyan muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli takafulni joriy etishda huquqiy baza va shar'iy boshqaruv tizimini birgalikda shakllantirish zarur.

Yuqoridagi nazariy tahlilni amaliy mexanizmlar bilan to'ldirish maqsadida takaful tizimining asosiy mahsulot turlari va operatsion mexanizmlarini ko'rib chiqamiz.

Oilaviy takaful (Family Takaful) an'anaviy hayot sug'urtasiga funksional muqobil bo'lib, uzoq muddatli jamg'arma va himoya elementlarini birlashtiradi. Ishtirokchi badallari ikki qismga, ya'ni o'zaro himoya jamg'armasi (tabarru) va shaxsiy jamg'arma-investitsiya hisobiga ajratiladi. Investitsiya qismi halol aktivlarga joylashtirilib, mudoraba asosida daromad keltiradi. Bozor tahlillariga ko'ra, oilaviy takaful jahon takaful bozorining eng yirik segmenti hisoblanadi, investitsiyaga bog'langan takaful esa eng tez o'sayotgan yo'nalishdir (Market Research Future, 2026).

Umumiy takaful (General Takaful) an'anaviy mol-mulk va mas'uliyat sug'urtasiga mos keladi. U avtomobil, ko'chmas mulk, sog'liq va boshqa qisqa muddatli xavflarni qoplaydi. Bunda badallar asosan tabarru tabiatiga ega bo'lib, yil yakunida qoplamalardan ortgan surplus ishtirokchilarga qaytarilishi mumkin. Fors ko'rfazi mamlakatlarida sog'liq va avtomobil takafulining majburiy tartibda joriy etilgani sektor o'sishining muhim omillaridan biri bo'lgan (IMARC Group, 2025).

Retakaful takaful operatorlari uchun shariatga mos qayta sug'urta mexanizmi bo'lib, yirik yoki to'plangan xavflarni qayta taqsimlash imkonini beradi. Retakaful bozorining cheklanganligi rivojlanayotgan takaful tizimlari uchun jiddiy infratuzilmaviy masala hisoblanadi va xalqaro hamkorlikni taqozo etadi. IFSB tahlillarida takaful va retakaful bozori hali yetarlicha chuqurlashmagani hamda geografik jihatdan jamlanganligi qayd etilgan. Bu esa global miqyosda standartlashtirish va sig'imni oshirish zarurligini ko'rsatadi (IFSB, 2025).

Raqamli platformalar va sug'urta texnologiyalari (InsurTech) takaful xizmatlarini arzonlashtirish hamda keng aholiga yetkazishda muhim rol o'ynaydi. Jahon amaliyotida sun'iy intellekt va blokcheyn asosidagi platformalar qoplama jarayonini tezlashtirgani hamda firibgarlikni aniqlash samaradorligini oshirgani qayd etilgan. Mobil-birinchi yondashuv yoshlar va shahar aholisi vakillarini jalb qilishda samarali bo'lib, aholisi yosh va raqamli xizmatlarga moyil bo'lgan O'zbekiston uchun alohida ahamiyatga ega.

Ushbu mahsulotlarni birlashtiruvchi umumiy xususiyatlar quyidagilardan iborat: badalning tabarru (xayriya) tabiatiga egaligi, jamg'armaning ishtirokchilarga tegishliligi, halol investitsiya talabi, surplus taqsimoti imkoniyati va shar'iy nazorat kengashi (Shariah board) tomonidan boshqaruv. Ushbu xususiyatlar takafulni an'anaviy sug'urtadan ajratib turuvchi institutsional asosni tashkil etadi.

O'zbekistonda islomiy moliyaning huquqiy va institutsional asoslari so'nggi yillarda izchil shakllanmoqda. 2026-yil iyun oyida "Islomiy bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunning kuchga kirishi islomiy moliya ekotizimi uchun muhim huquqiy poydevor yaratdi. Takaful tizimi ushbu ekotizimning tabiiy tarkibiy qismi sifatida sug'urta sohasida shariatga mos muqobilni shakllantirish imkonini beradi. Markaziy Osiyo bo'yicha qiyosiy manzara ham bu zaruratni ko'rsatadi. Yevrosiyo taraqqiyot banki ma'lumotlariga ko'ra, mintaqaning islomiy moliya aktivlari 2024-yil boshida atigi 699 million dollarni, ya'ni jahon aktivlarining 0,01 foizini tashkil etgan, vaholanki aholining 85 foizi musulmon hisoblanadi (Eurasian Development Bank, 2025).

Bunday o'zgarishlarning makroiqtisodiy ahamiyati yuqori. Mamlakatda sug'urta qamrovi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 1 foizdan past darajada qolayotgan bir paytda, takaful diniy e'tiqodi tufayli an'anaviy sug'urtadan foydalanishdan tiyilgan aholini jalb qilish orqali umumiy qamrovni kengaytirishi mumkin. Bu sug'urtalanmagan xavflar darajasini kamaytiradi va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Joriy etishning amaliy formatlari jahon amaliyotidan kelib chiqib ikki xil bo'lishi mumkin. Birinchi format mavjud sug'urta kompaniyalari huzurida "takaful oynasi" (takaful window) ochishdir. Ikkinchi format esa mustaqil to'laqonli takaful operatorlarini tashkil etishdir. Birinchi format kam xarajatli va tez joriy etiladigan model bo'lsa, ikkinchisi shar'iy poklikni to'liqroq ta'minlaydi. Qo'shni Qirg'iziston aynan ikkinchi yo'nalishda dastlabki qadamni qo'yib, 2025-yilda takafulni sug'urta qonunchiligiga kiritgan va birinchi ixtisoslashgan operatorga litsenziya bergan (Eurasian Development Bank, 2025).

Moliyaviy inklyuzivlik nuqtai nazaridan O'zbekiston uchun takafulning ahamiyati alohida. Aholining sezilarli qismi shar'iy talablarga mos mahsulotlarga talab bildirayotgan sharoitda takaful moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasini oshiruvchi muhim vosita bo'lishi mumkin. 2020-yilgi so'rovga ko'ra, islomiy moliya institutlari tashkil etilsa, aholining 75 foizi va tadbirkorlarning 61 foizi ulardan foydalanishga tayyor (Kun. uz, 2025). Shu bilan birga, takafulni muvaffaqiyatli joriy etish uchun shar'iy nazorat kengashlari, retakaful infratuzilmasi, malakali kadrlar hamda aholi o'rtasida moliyaviy savodxonlikni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirish mumkin. An'anaviy sug'urta va takaful



bir xil iqtisodiy funksiyani, ya'ni jamiyatda xavfni qayta taqsimlash vazifasini bajaradi hamda bu jihatdan o'zaro raqobatbardosh hisoblanadi. Shu bilan birga, funksional o'xshashlikka qaramay, ushbu ikki tizim institutsional va shartnoma tuzilmasi darajasida tubdan farqlanadi. An'anaviy mexanizm xavfni o'tkazish va ayirboshlashga, takaful esa xavfni bo'lishish, o'zaro yordam (ta'awun) va xayriya (tabarru) tamoyillariga asoslanadi.

Takaful mexanizmlarining tizimli xususiyatlari, ya'ni surplus taqsimoti, halol investitsiya, aktivga asoslanganlik va shar'iy nazorat uni axloqiy hamda inklyuziv sug'urta institutiga aylantiradi. Shu jihatdan takaful moliyaviy inklyuzivlikni oshirish bo'yicha muhim salohiyatga ega.

O'zbekiston sharoitida ushbu nazariy xulosalar muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. 2026-yildan kuchga kirgan islomiy bank faoliyati to'g'risidagi huquqiy baza takafulni joriy etish uchun zarur institutsional poydevorni yaratadi. Sug'urta qamrovining nisbatan pastligi va shar'iy mahsulotlarga bo'lgan yuqori talab esa takaful tizimini rivojlantirishning iqtisodiy maqsadga muvofiqligini asoslaydi.

Amaliy tavsiyalar quyidagilardan iborat: takaful faoliyatini tartibga soluvchi maxsus huquqiy normalar va shar'iy boshqaruv standartlarini ishlab chiqish; dastlabki bosqichda mavjud sug'urta kompaniyalari huzurida "takaful oynasi" formatini joriy etish; retakaful bo'yicha xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish; malakali kadrlar tayyorlash hamda aholi moliyaviy savodxonligini oshirish.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalish ushbu nazariy xulosalarning empirik tekshiruvidir. Bu O'zbekistonda takafulga bo'lgan amaliy talabni so'rovlar asosida baholash hamda pilot loyihalar natijalarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Akhter W., Khan S.U. Determinants of Takāful and conventional insurance demand: A regional analysis // *Cogent Economics & Finance*. – 2017. – Vol. 5, № 1. – Art. 1291150.
2. Archer S., Karim R.A.A., Nienhaus V. (eds.). *Takaful Islamic Insurance: Concepts and Regulatory Issues*. – Singapore: John Wiley & Sons, 2009. – 384 p.
3. Beck T., Demirgüç-Kunt A., Merrouche O. Islamic vs. conventional banking: Business model, efficiency and stability // *Journal of Banking & Finance*. – 2013. – Vol. 37, № 2. – P. 433–447.
4. Billah M.M. *Islamic Insurance Products: Exploring Takaful Principles, Instruments and Structures*. – Cham: Palgrave Macmillan, 2019. – 298 p.
5. Chapra M.U. *The Islamic Vision of Development in the Light of the Maqasid al-Shari'ah*. – Jeddah: Islamic Research and Training Institute, 2008. – 87 p.
6. El-Gamal M.A. *Islamic Finance: Law, Economics, and Practice*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – 221 p.
7. Eurasian Development Bank, Islamic Development Bank Institute, LSEG. *The Future of Islamic Finance in Central Asia*. – Almaty: Eurasian Development Bank, 2025. – 96 p.
8. Hassan M.K., Aliyu S. A contemporary survey of Islamic banking literature // *Journal of Financial Stability*. – 2018. – Vol. 34. – P. 12–43.
9. ICD–LSEG. *Islamic Finance Development Report 2025*. – London: London Stock Exchange Group; Islamic Corporation for the Development of the Private Sector, 2025. – 148 p.
10. IFSB. *Islamic Financial Services Industry Stability Report 2025*. – Kuala Lumpur: Islamic Financial Services Board, 2025. – 112 p.
11. IMARC Group. *Takaful Market: Size, Share and Trends Report 2026–2034*. – New York: IMARC Services Private Limited, 2025. – 210 p.
12. Iqbal Z., Mirakhor A. *An Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice*. – 2nd ed. – Hoboken: John Wiley & Sons, 2011. – 405 p.
13. Khan H. Optimal incentives for takaful (Islamic insurance) operators // *Journal of Economic Behavior & Organization*. – 2015. – Vol. 109. – P. 135–144.
14. Kun.uz. Islamic finance: Unlocking hidden capital for economic growth [Elektron resurs]. – URL: <https://kun.uz/en/news/2025/01/09/> (murojaat qilingan sana: 19.06.2026).
15. Market Growth Reports. *Takaful (Islamic Insurance) Market Size, Share and Forecast* [Elektron resurs]. – 2024. – URL: <https://www.marketgrowthreports.com/> (murojaat qilingan sana: 19.06.2026).
16. Maximize Market Research. *Takaful Insurance Market: Global Analysis and Forecast (2025–2032)*. – Pune: Maximize Market Research Pvt. Ltd., 2025.
17. Maysami R.C., Kwon W.J. An analysis of Islamic Takaful insurance // *Journal of Insurance Regulation*. – 1999. – Vol. 18, № 1. – P. 109–132.
18. Mordor Intelligence. *Takaful Market Size, Share, Growth & Trends Report 2030* [Elektron resurs]. – URL: <https://www.mordorintelligence.com/> (murojaat qilingan sana: 19.06.2026).
19. OECD. *Global Insurance Market Trends 2025*. – Paris: OECD Publishing, 2025. – 135 p.
20. Outreville J.F. The relationship between insurance and economic development: 85 empirical papers for a review of the literature // *Risk Management and Insurance Review*. – 2013. – Vol. 16, № 1. – P. 71–122.
21. Swiss Re Institute. *World Insurance: Strengthening Global Resilience. Sigma Report*. – Zurich: Swiss Re Institute, 2024. – 52 p.
22. The Business Research Company. *Takaful Global Market Report 2025*. – London: The Business Research Company,



2025. – 175 p.

23. UzDaily. Uzbekistan's insurance market grows 37.8% in 2025 [Elektron resurs]. – URL: <https://www.uzdaily.uz/en/> (murojaat qilingan sana: 19.06.2026).
24. Verified Market Reports. Takaful Insurance Market Size, Demand and Forecast 2033 [Elektron resurs]. – URL: <https://www.verifiedmarketreports.com/> (murojaat qilingan sana: 19.06.2026).

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100